

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAYENS-NAZORAT”
TIZIMINING AHAMIYATI OSHMOQDA**

B.I.G'aniyev

K.B.Yusupov

*Bilim va malakalarni baholash
agentligi xodimlari*

Bugungi kunda jahonning deyarli har bir mamlakatida korrupsiya holatlariga qaysidir darajada duch kelish mumkin. Korrupsiya illati davlatning turli sohalariga, xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Jonajon O'zbekistonimizda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga chek qo'yish maqsadida qattiq kurash olib borilmoqda.

Davlatimiz rahfarining 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sod Farmoni asosida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagи jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, barcha rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham 2020-yildan boshlab barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”)ni joriy etilganligi korrupsiyaga qarshi tizimli ravishda kurashishga imkoniyat yaratdi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi 2023-yil

yakunlari bo'yicha faoliyati "yaxshi" baholandi, bunda tashkilotda joriy etilgan "komplayens-nazorat tizimi"ning ahamiyati katta.

Agenligimizda komplayens-nazorat tizimi samarali joriy etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalari asosida hamda ISO 37001:2016 korruptsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, tashkilotda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni tartibga soluvchi 12 ta ichki normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amalda joriy etildi.

"Bilim va malakalarni baholash agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati", "Bilim va malakalarni baholash agentligida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti", "Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom", "Bilim va malakalarni baholash agentligiga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti" shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Bilim va malakalarni baholash agentligida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq agentlikka yuklangan barcha funksiyalar bo'yicha korruption xavf-xatarlar tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Bilim va malakalarni baholash agentligiga qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan 46 ta vazifa va funksiyalardan 30 tasi bo'yicha xavf-xatar darajasi "past" va qolgan funksiyalari bo'yicha "o'rta" darajada baholandi hamda ularni kamaytirish yuzasidan tegishli choralar belgilandi.

Bunda Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyatida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni umuman olganda past baholanishi agentlik tomonidan test sinovlarini o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish, xaridlarni amalga oshirish va ishga qabul qilish bo'yicha qarorlarning kollegial tartibda qabul qilinishi, faoliyatning to'liq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganligi va ish jarayonlarining avtomatlashtirish choralar ko'rilmanni bilan izohlanadi.

Baholash natijalari asosida shakllantirilgan Bilim va malakalarni baholash agentligining Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi "E-antikor" elektron platformasiga yuklanib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Elektron platforma orqali shakllantirilgan Bilim va malakalarni baholash agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari tasdiqlandi.

Mazkur chora-tadbirlar ijrosi natijasida, talabgorlarning bilim va malakalarini baholash test sinovlarini bosqichma-bosqich sun'iy intellekt yordamida, inson omilini aralashtirmagan holda o'tkazish yo'lga qo'yilmoqda. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jalik vazirligi huzuridagi Kompetensiyanı rivojlantirish instituti tinglovchilar uchun o'tkaziladigan test sinovi, "El-yurt umidi" jamg'armasining ochiq stipendiya tanlovi bo'yicha test sinovi, xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish

bo'yicha test sinovlari, chet tilini bilish va egallash darajasini baholash CEFR imtihonlarida gapirish ko'nikmasini aniqlash imtihonlari shular jumlasidandir.

Oliy ta'lif muassasalarining bakalavriat ta'lif yo'nalişlariga kirish imtihonlari bo'yicha abituriyentlarning fikrini o'rganish maqsadida "U-Report" loyihasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda "Oliy ta'lif muassasalariga kirish imtihonlari qanday o'tdi?" mavzusida so'rovnama o'tkazilib, uning natijalari mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda.

Shuningdek, Bilim va malakalarni baholash agentligining o'z mablag'lari hisobiga test sinovlaridagi shaffoflik va inson omilini kamaytirishga xizmat qiluvchi respublikamizning barcha hududlarida katta sig'imli binolarini barpo etish ishlari davom etmoqda. Bugungi kunda Buxoro, Namangan, Xorazm, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlaridagi binolar foydalanishga topshirilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Surxondaryo viloyatlaridagi binolar qurilishi yakunlanmoqda.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjat asosida agentlikda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Ushbu tizim potensial manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish, ishga kirish yoki rotatsiya vaqtida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash hamda manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish bo'yicha yillik deklaratsiyalarni to'ldirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur tizim asosidagi tahlillar natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldi olindi. Agentlik tizimi bo'yicha umumlashtirilgan "Manfaatlar to'qnashuvi reyestri" shakllantirilib, tegishli ma'lumotlar "E-antikor.uz" elektron platformasiga joylashtirib borilmoqda.

Bilim va malakalarni baholash agentligida kadrlar tanlovi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan "Bilim va malakalarni baholash agentligi markaziy apparati, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bo'limlari, tizim tashkilotlaridagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida"gi Nizom asosida amalgalash oshirilmoqda.

Bilim va malakalarni baholash agentligi saytida vakant o'rnlarga tanlov e'lon qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan tanlov jarayonlari internet tarmog'i orqali to'g'ridan to'g'ri namoyish etilib, natijalar shu kunning o'zida e'lon qilib borilishi ta'minlandi. O'rganishlarda dastlab, nomzodlarning davlat xizmatchilari uchun amaldagi qonunchilikda belgilangan talablarga mosligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bilim va malakalarni baholash agentligining barcha xodimlari bilan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar qayd etilgan, qo'shimcha kelishuvlar tuzildi.

Tizimda korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurashish, turli byurokratik va inson omili bilan bog'liq to'siqlarga barham berishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalgalash oshirilmoqda.

Xususan, agentlik qoshida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha tezkor xabar berish, xato-kamchiliklarning o'z vaqtida oldini olish va ularni bartaraf etish

maqsadida respublika bo'yicha yagona 1195 raqamli «Ishonch telefoni» faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, fuqarolar o'z murojaatlarini quyidagi platformalar orqali ham yo'llashi mumkin:

agentlikning yangi ishga tushirilgan rasmiy telegram boti (@bba_antikor_bot);

agentlikning antikor@uzbmb.uz elektron pochta manzili;

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Davlat fuqarolik xizmatchilari ning namunaviy qoidalari hamda Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi. Nizom bilan kasbiy faoliyatga oid, xizmat faoliyatiga oid hamda xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari tartibga solinadi.

Shu maqsadda, Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari odob-axloq qoidalari, Odob-axloq komissiyasi Nizomi tasdiqlanib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Bunda komissiya tomonidan xizmat tekshiruvlari Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarni buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament asosida tashkil etilishi ta'minlanmoqda.

Agentlik xodimlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan "Korupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari" mavzusida 10 soatlik o'quv kurslari tashkil etildi. Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari mazkur o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlab, tegishli sertifikatiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, Korupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda "Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari" mavzusida turkum seminar-treninglar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Tadbirlarga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazi mutaxassislari jalg etilib, agentlik xodimlari uchun "Fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda nizoli vaziyatlarning oldini olish" mavzusida psixologik treninglar tashkil etildi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tizimida kontragentlarni o'rganishga oid yo'riqnomalari talablari asosida davlat xaridlarini amalga oshirishda ishtirokchilarning afillanganlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarni oldini olishga qaratilgan 23 ta kontragentlar bo'yicha o'rganishlar o'tkazilib, tegishli xulosalar berildi. O'rganish natijalari bo'yicha shakllantirilgan kontragentlarni o'rganish reyestri "E-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirildi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan xizmat ko'rsatish bo'yicha xo'jalik subyektlari bo'yicha 159 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, barchasiga korupsiyaga qarshi qoidalari kiritilgan.

Bilim va malakalarni baholash sho'balari tomonidan korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklarga oid qonun buzilishi holatlarini oldini olish bo'yicha o'quv profilaktik ishlarning olib borilishi bu bo'yicha ochiqlikni ta'minlab, keng jamoatchilikka ma'lum qilish maqsadida respublika bo'yicha 678 ta uchrashuv o'tkazilib, 215 838 nafar fuqarolarga ta'lim muassasalariga qabul jarayonidagi yangiliklar, shaffoflik va adolatni ta'minlash borasidagi ishlar, korrupsiya oqibatlari to'g'risida tushunchalar berildi. Tadbirlarda Adliya

boshqarmalari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va mahalla faollari ishtirok etdilar.

“9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosaati bilan Bilim va malakalarni baholash agentligida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari doimiy tashkil etilib, agentlik faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati yaratilgan.

Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyati bilan bog'liq barcha ma'lumotlar “Ochiqlik indeksi” bo'yicha tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilib, yangilab borilishi ta'minlanmoqda.

Bilim va malakalarni baholash agentligi bundan buyon ham korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi keskin kurashadi.